

**IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHDA SINERGETIK TA'SIRNING
NAZARIY ASOSLARI**

Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti 4-bosqich talabasi

Gmail:makhmudovazokhida@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada iqtisodiyot va uni raqamlashtirishda sinergiya ta'sirining ahamiyati ochib berilgan. Iqtisodiyotni tarkibiy qismlarini raqamlashtirishning samarasi o'rganilgan. Sinergiya va sinergiya ta'sini yuzaga chiqaruvchi o'zaro bog'liq aloqa turlari aniqlangan. Iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirishdagi muammolar natijasida yuzaga keladigan sinergik ta'sirlarni aniqlash uchun "sinergitik to'plam samarasi" metodologiyasidan foydalanilgan. Iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirishda tizimda tarkibiy birliklar va ta'sir omillarining o'zaro sinergetik ta'sirini alohida va kompleks tahlil metodologiyasi asosida baholangan.

Kalit so'zlar: sinergiya, iqtisodiyotning tarkibiy qismlari, to'plam samarasi metodologiyasi, sinergetik ta'sir, sinergetik bog'liqlik, qo'shimcha samara.

Аннотация. В статье раскрывается важность синергетических эффектов в экономике и ее цифровизации. Изучен эффект цифровизации экономических составляющих. Определены синергия и виды взаимозависимого общения, создающие ощущение синергии. Методология эффект синергетического набора была использована для выявления синергетических эффектов, возникающих в результате проблем цифровизации секторов экономики. Синергетический эффект проблем, возникающих при цифровизации отраслей экономики Республики Узбекистан, оценен на основе методологии синергитик эффект.

Ключевые слова: синергия, компоненты экономики, методология коллективного эффекта, синергетический эффект, синергетическая зависимость, дополнительный эффект.

Annotation. The article reveals the importance of synergy effects in the economy and its digitization. The effect of digitalization of the components of the economy has been studied. Synergy and the types of interdependent communication that create the feeling of synergy have been identified. collective efficiency methodology was used to identify synergistic effects resulting from problems in the digitization of economic sectors. The synergistic effect of problems arising in the digitization of economic sectors of the Republic of Uzbekistan was evaluated based on the COLLECTIVE EFFECT methodology.

Keywords: synergy, components of the economy, methodology of collective effect, synergistic effect, synergistic dependence, additional effect.

Kirish

Raqamlashtirish jarayoni butun dunyo bo‘ylab iqtisodiyotni yangidan shakllanishiga yordam bermoqda. Buning natijasida biznesning yangi turlari paydo bo‘lishiga, iqtisodiyot tarmoqlarining raqamlashishiga olib keldi. Mehnat bozorlarida ham bir qator o‘zgarishlar yuz bermoqda va iqtisodiy samaradorlik ham oshishiga olib kelmoqda. Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta’sirning ahamiyati bir tarmoqning rivojlanishidan olinadigan samarani ikkinchi tarmoq bilan birgalikdagi integratsiyasi natijasida ko‘proq samaraga erishish ko‘zda tutiladi.

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmonga ko‘ra mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, elektron hukumat tizimini rivojlantirish, dasturiy mahsulotlar va texnologiyalarning mahalliy bozorini rivojlantirish, sohani malakali kadrlar bilan ta’minlash maqsadida 220dan ortiq loyihalar amalga oshirilmoqda.

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida Elektron hukumat va yagona interaktiv xizmatlar portal orqali 178 ta xizmat yo‘lga qo‘yildi ushbu xizmatlar aholining xarajatlari bilan birgalikda vaqtini ham tejamoqda.

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etsa ham, raqamli texnologiyalar mahsulotlar va xizmatlar sifatini, samaradorlikni oshiradi, ortiqcha xarajatlarni, ayniqsa, korrupsiyani kamayishiga hissa qo‘shadi.

Raqamli iqtisodiyot deganda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan tizim tushuniladi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi inson, unga kerakli xizmatdan tezroq foydalanishni, internet orqali o‘ziga kerakli xizmatlarni va mahsulotlarni bir zumda vaqtni va mablag‘ni tejash orqali xarid qilish imkoniyatini beradi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishining afzalliklari ishlab chiqarishda mehnat samaradorligini oshishi, kompaniyalarning raqobatbardoshligini o‘sishi, ishlab chiqarishdagi xarajatlarning kamayishi, yangi ish o‘rinlarini yaratilishi, yangi zamonaviy kasblarni paydo bo‘lishi bilan birgalikda aholining turmush darajasini yaxshilab, kambag‘allikni qisqarishiga, shuningdek iqtisodiyotning ham o‘z o‘rnida o‘sishiga olib keladi.

Adabiyotlar tahlili

Iqtisodiyot va jamiyatning “raqamlashtirish” jarayoni (ingliz tilida – digitization ya’ni, raqamlashtirish, ba’zan esa digitalization ya’ni raqamlashtirilishi ma’nosini bildiradi.) haqida gapirganda, birinchi navbatda, terminologiyaga aniqlik kiritish kerak. Eng keng ma’noda “raqamlashtirish” jarayoni odatda raqamli texnologiyalarni

keng qo'llash va aralashtirib, bir qilib yuborish; aralashib bir bo'lib yoki o'xshab ketish kabi jarayonlar qilish bilan boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishni anglatadi. axborotni yaratish, qayta ishlash, almashish va uzatish texnologiyalaridir¹. Raqamli iqtisodiyot tushunchasiga bir qator ta'riflar berilgan. Jumladan, iqtisodiyot fanlari doktori, Rossiya Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi V.Ivanov "Raqamli iqtisod" - haqiqatimizni to'ldiradigan virtual muhit" - deb ta'rif bergan. Tomsk davlat universitetining professori, R. Meshcheryakovning fikricha "raqamli iqtisod" atamasiga ikkita yondashish mavjud deb hisoblaydi. Raqamli texnologiyalar asosida iqtisodiyotning va elektron tovar va xizmatlar eksklyuziv domen tavsiflovchi raqamli iqtisodiyot: birinchi yondashuv "klassik" deb nomlanib, klassik misollar - teletibbiyot, masofaviy ta'lim, dori-darmonlarni sotish (filmlar, televizorlar, kitoblar va boshqalar). Ikkinchi yondashuv: "raqamli iqtisod" ilg'or raqamli texnologiyalardan foydalangan holda iqtisodiy ishlab chiqarishdir. M.L. Kalujskiy raqamli iqtisodiyot - iqtisodiy internet faoliyati, shuningdek, shakllari, usullari, vositalari va uni amalga oshirish aloqa muhitidir deb ta'riflagan. Manbalarda keltirilishicha "Raqamli iqtisodiyot" iqtisodiyotning bunday turi ma'lum darajada amalda ishlaydigan turdagi model hisoblanadi. Raqamli iqtisod - bu ishlab chiqarish kompleksi, inson uchun hayot va qulaylikni ta'minlaydigan mahsulot va xizmatlarni yaratadigan ishlab chiqarish tizimi bo'lib, u yerda ma'lum bir kiber-jismoniy(kiberfizicheskaya) tizim paydo bo'ladi. Fikrimizcha, raqamli iqtisodiyot bu ishlab chiqarish kompleksi insonlar uchun qulayliklarni ta'minlaydigan mahsulot va xizmatlarni yaratadigan virtual muhit bo'lib, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda iqtisodiy ishlab chiqarish tizimidir. Shuningdek, raqamli iqtisod rasmiylashtirilishi mumkin bo'lgan barcha narsani qamrab olishi mumkin, ya'ni mantiqiy sxemalarda namoyon bo'ladi. Hayotning o'zi esa bu "narsalarni" ishlab chiqarish, tarqatish, almashtirish va iste'mol qilish tizimiga aylantirishga imkoniyat yaratadi. Haqiqatdan ham insonning ruhiy haqiqatida joylashgan dunyoning virtual qismidan oldin ishlab chiqarish kuchi bo'lmagan, yangi g'oyalar va mahsulotlar yaratilgan muhit emas edi.

Tahlil va natijalar.

Tadqiqot metodologiyasi. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlanishidagi omillarning senirgetik to'plam samarasidan foydalandi. Iqtisodiy statistik ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Raqamli iqtisodiyot faoliyati ikki yoqlama ta'sir mexanizmi asosida o'rganiladi va ma'lumotlar bazasi yig'iladi. To'plangan ma'lumotlar asosida kuzatish va iqtisodiy tahlilni qiyoslash, tizimli yondashuv hamda mantiqiy yondashuv kabi uslublardan samarali foydalanildi.

Raqamli iqtisodiyot hozirgi kunda mavjud sohalarning yarmidan ko'p qismida o'zgarishlar olib kelishi to'g'risida prognozlar berilmoqda. Jahon banki ekspertlarining

¹ Данное определение приводится, в частности, экспертами UNCTAD (The Transformative Economic Impact of Digital Technology, http://unctad.org/meetings/en/Presentation/ecn162015p09_Katz_en.pdf)

fikricha, internetdan foydalanuvchi aholi sonining 10 foizga ortishi YaIM hajmini har yili o'rtacha 0,4-1,4 foizga oshishiga imkoniyat yaratib berarkan.

Raqamli iqtisodiyot - yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellarini yaratib, ularni kundalik hayotga joriy etish demakdir. Bu tizimni asosiy belgilari yuqori darajada avtomatlashtirilganlik, elektron hujjat almashinuvi, ma'lumotlarning elektron bazasi, buxgalterlik va boshqaruv tizimlarining elektron integratsiyalashuvidan iborat. Bu tizimning qulayliklariga keladigan bo'lsak to'lovlar uchun xarajatlar kamayadi, tovarlar va xizmatlar haqida tez va ko'proq ma'lumotlar olinadi, raqamli dunyodagi tovar va xizmatlarning jahon bozoriga chiqish imkoniyati oshadi, iste'molchilarning fikrlarini tez o'rganib, bozorga moslashish osonlashadi.[2]

Sinergetik ta'sir – bu turli tizim yoki jarayonlarning birgalikdagi ta'siri natijasida yuzaga keladigan qo'shimcha samaradorlik va yaxshilanish holati. Iqtisodiyotda esa sinergetik ta'sir deganda texnologiyalar va innovatsiyalarni birlashtirish orqali yangi imkoniyatlarni yaratish tushuniladi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali ishlab chiqarishda samaradorlikka, elektron tijorat va onlayn xizmatlarni vujudga kelishiga, moliyaviy sektorda kriptovalyutalar va raqamli to'lov tizimlarini tranzaksiyalarini tez va xavfsiz amalga oshirishga ijobiy ta'sir qiladi.


Ishlab chiqarishni raqamli transformatsiyasi tadqiqotlariga ko'ra raqamli texnologiyalardan va boshqaruv usullaridan foydalanib kelayotgan korxonalar o'z raqobatchilariga qaraganda 26 foizga ko'proq foyda olishi aniqlangan. Faqatgina raqamli texnologiyalarni o'zidan foydalanib kelayotgan korxonalarda bu samaradorlik ulushi 15 foiz bo'lsa, faqat boshqaruv usullarini modernitsiyalashtirgan korxonalarda esa samaradorlik 9 foiz ekanligini ko'rsatilgan.[3]

Korxonalar ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish uchun bulutli xizmatlar, katta ma'lumotlar, buyumlar Interneti(IoT), shuningdek, sun'iy intellektni asosiy texnologik jarayonlar va ulanishlarni boshqarish tizimlariga kiritadilar. 5G davrining boshlanishi butun dunyo bo'ylab ilm-fan va texnologiyalarni takomillashtirish va yangilanish sur'atini asta-sekin jadallashtiradi, odamlar ishi va hayotiga chuqur ta'sir o'tkazadi, iqtisodiy o'sishning yangi nuqtalarini taqdim etadi, insoniyatning aqlli jamiyatga o'tish loyihalarini aniqlab beradi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirishning sinergetik ta'siri keng ko'lamli va turli sohalarda sezilarli o'zgarishlarga va turli sohalarda sezilarli o'zgarishlarga olib keladi. Bu jarayon ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, bozor va iste'molchilar bilan aloqalarni yaxshilash, to'lov tizimlari va moliyaviy xizmatlarni modernizatsiya qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish, davlat boshqaruvi va jamoat xizmatlarini optimallashtirish, investitsiyalarni rag'batlantirish va ta'lim tizimini rivojlantirish kabi yo'nalishlarda o'z aksini topadi.

Raqamli jamiyat jamiyatda raqamlashtirish imkoniyatlaridan foydalanish jarayonini bildiradi. Raqamli jamiyat obyektiv jarayon ekanligini hisobga olsak istiqbolda bu tartib global raqamli dunyoni hosil qiladi. Har bir tarkibiy birliklar ta'sir omillari va sinergitek birliklar sifatida amal qiladi. Raqamli jamiyatning sinergitik ta'sir birliklarining klassik tuzilishi quyidagi rasmda aks ettirilgan.

Raqamli iqtisodiyotning ishlab chiqarish sanoatining kapital omillari kiritishiga multiplikativ ta'siri, birinchi navbatda, korxonalar tomonidan ilmiy-tadqiqot investitsiyalarining ko'payishi va an'anaviy mashina va uskunalarning ilg'or mashina va uskunar bilan almashtirilishida namoyon bo'ladi [4]. Bir tomondan, raqamli iqtisodiyot ishchilarning inson kapitali darajasini va ishlab chiqarish sanoatida mehnat unumdorligini oshirishga hissa qo'shadi. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va ishchilar sifatining oshishi natijasida ishlab chiqarish korxonalari texnologik tadqiqotlar va ishlanmalarga ko'proq sarmoya kiritadilar, bu nafaqat ishlab chiqarishning kapitalga bo'lgan yuqori malakali ishchi kuchiga bo'lgan talabini qondiradi, balki kapital tarkibini optimallashtiradi. Kapital unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish korxonalarining texnologik taraqqiyotini rag'batlantirish va ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirishga ko'maklashadi. Raqamli iqtisodiyotda esa kompaniyalarning qo'shimcha kapital qo'yilmalari endi an'anaviy sanoat uskunalari xarid qilish uchun emas, balki an'anaviy uskunar o'rnini bosuvchi sanoat robotlarini xarid qilish, iqtisodiy samaradorlikni samarali oshirishga ham sarflanadi. Bundan tashqari, sanoat robotlarining keng qo'llanilishi ishlab chiqarish korxonalarida yuqori malakali ishchi kuchiga bo'lgan talabni oshirib, ishchilarni raqamli iqtisodiyot davrining ishlab chiqarishni rivojlantirish ehtiyojlarini qondirish uchun sifat va mehnat ko'nikmalarini oshirishga undaydi. Xitoy iqtisodiyoti yuqori tezlikdagi o'sishdan yuqori sifatli rivojlanishga o'tgandan beri raqamli iqtisodiyot iqtisodiy o'sish va texnologik taraqqiyotning asosiy omili sifatida paydo bo'ldi. So'nggi yillarda Xitoyning ishlab chiqarish korxonalari sanoat raqamli transformatsiyasini jadallashtirishni davom ettirdilar, katta ma'lumotlar, blokcheyn va boshqa axborot texnologiyalarini korxonalarni rivojlantirishga faol qo'lashdi, raqamli iqtisodiyotni bosqichma-bosqich korxonalarni yuqori sifatga erishish uchun rag'batlantirishning muhim usuliga aylantirdilar.




1-rasm. Raqamli jamiyatning sinergitik ta'sir birliklari².

Raqamli jamiyat iqtisodiyotni raqamli texnologiyalar bilan ta'minlash jarayonida vujudga kelishini hisobga olsak, asosiy negiz tarkibiy birlik sifatida raqamli ta'lim iqtisodiyotini shakllantirishdan boshlanishi kerak. Ikkinchi bosqich raqamli infratuzilmani shakllantirish talab etiladi. Bu ikki quyi tuzilma raqamli iqtisodiyotni shakllantiradi, bu esa raqamli jamiyatni boshqarishda raqamli tizimni taqazo qiladi. Demak raqamli jamiyatni asosini yaratish orqali raqamli texnologik jamiyat vujudga keladi.

Chenerining sanoatlashtirish bosqichi nazariyasiga ko'ra [5], sanoatlashtirishdan keyingi davrda ishlab chiqarish strukturasi kapitalni ko'p talab qiladigan texnologiyaga o'tadi va texnologik taraqqiyot ishlab chiqarish strukturasi yangilashning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Axborot texnologiyalarining yangi avlodining bosqichma-bosqich etuklashishi va uning ta'minot tomonidagi dastur markaziga o'tishi bilan ishlab chiqarish sanoati raqamli iqtisodiyot uchun innovatsiyalarni boshqarish, o'zgartirish va yangilash rolini o'ynash uchun asosiy kurash maydoni sifatida paydo bo'ldi. Raqamli texnologiya ishlab chiqarish tuzilmalarini texnologik yangilash imkonini berib, resurslarni taqsimlash samaradorligi va mahsuldorlikni oshirishi mumkin. Axborot texnologiyalarining yangi avlodi mahsulot haqida ma'lumot to'plash va bilim almashish, shuningdek, mahsulotni ishlab chiqish va loyihalash faoliyati uchun integratsiyani ta'minlaydi, korxonalariga "innovatsiyalarni rag'batlantirish effekti" orqali texnologik innovatsion imkoniyatlar va mehnat unumdorligini yaxshilash uchun ochiq innovatsion paradigmani ishlab chiqishda yordam beradi. Korxonalar, shuningdek, aniq senariylarda mijozlarning xilma-xil va moslashtirilgan ehtiyojlarini aniqroq tushunishlari mumkin, bu esa talab va taklifni aniq moslashtirish

² Muallif ishlanmasi

va mijozlar talabiga real vaqt rejimida javob berish orqali ishlab chiqarish sanoatining umumiy omillarini yaxshilash uchun kuchli turtki beradi (2-rasmda ko‘rsatilgan).



2-rasm. Raqamli iqtisodiyotning ishlab chiqarish sanoatiga ta'sir mexanizmi.

So‘ngi yillarda iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish borasida davlat tomonidan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirish maqsadida Prezidentimiz tomonidan bir qator normativ-huquqiy hujjatlari imzolandi.

Bugun raqamli texnologiyalar barcha sohalarga va odamlar hayotiga jadal kirib boryapti. Mamlakatimizda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish eng muhim vazifaga aylangan. Prezidentimizning 2020 yil 28 apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida 2023 yilga borib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2, ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 baravar oshirish, ular eksportini 100 million AQSH dollariga etkazish vazifasi qo‘yilgan.

Raqamli iqtisodiyotni keng joriy etish va uni qo‘llab-quvvatlash mamlakatimizning istiqboldagi taraqqiyot rejasidan muhim o‘rin egallaganligi tufayli iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar belgilandi va mazkur vazifalar ijrosi o‘laroq, mamlakatimizda yangi elektron hujjat aylanishi tizimlari joriy etilmoqda, elektron to‘lovlar rivojlantirilmoqda va elektron tijorat sohasidagi normativ-huquqiy baza takomillashtirilmoqda, elektron infratuzilma va tijorat shakllantirilmoqda, iqtisodiyotning barcha jabhalarida raqamli transformatsiyaga o‘tilishi qadamma-qadam amalga oshirilmoqda.

Raqamli transformatsiya realizatsiyasi bo‘yicha so‘nggi yillarda amalga oshirilgan ishlar qatorida aholi va tadbirkorlik subyektlarining davlat organlari bilan kontaktsiz aloqa shakllarini yana-da rivojlantirish maqsadida Yagona interaktiv davlat

xizmatlari portalining yangi versiyasi, Bosh vazirning tadbirkorlar murojaatlarini ko‘rib chiqish virtual qabulxonasi “business.gov.uz” portali ishga tushirildi [7].

Raqamli iqtisodiyot ulushi aholini internet tarmog‘i bilan foydalanish darajasi oshsa ortadi, undan tashqari elektron hukumat tizimi ham faoliyat yuritishi ham samarali bo‘ladi. Yurtimiz bo‘yicha internet foydalanuvchilari soni jami aholiga nisbatan 2018-yilda 46 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2021-yilda bu ko‘rsatkich 60 foizdan yuqorini tashkil etmoqda.

Raqamli iqtisodiyot rivojlangan davlatlarda YAIM hajmi ham, YAIMning aholi son boshiga ulushi ham yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin. Shu jihatdan olib qaraganda, mamlakatimizda mazkur masalaga e‘tibor qaratish yagona maqsadni ko‘zlaydi, u ham bo‘lsa, aholining yashash sharoitini yaxshilash, aholini real daromadini oshirish, qolaversa tadbirkorlikni va mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishdir.

“Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og‘ir illat – korrupsiya balosini yo‘qotishda ham samarali vositadir ” - Prezidentimizning mazkur so‘zlari raqamlashtirish nafaqat iqtisodiyot tarmoqlarida tejamkorlik va samaradorlikni ta‘minlashi, balki korrupsiya va qora iqtisodiyotga qarshi kurashish uchun samarali vosita sifatida qayd etilishi bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. World Economic Forum, Global Risks 2014, Ninth Edition, Geneva, Switzerland, 2014
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-iqtisodiyotni-rivojlantirish-istiqbollari/viewer>
3. Tuychieva, O.N. (2022). Ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2 (11), 180-189
4. Chenery, H.B. Interactions between industrialization and exports. Am. Econ. Rev. 1980, 70, 281–287. [Google Scholar]
5. Huang, Q.; Yu, Y.; Zhang, S.-L. Internet development and Manufacturing productivity improvement: Internal mechanism and Chinese experience. China Ind. Econ. 2019, 8, 5–23. [Google Scholar]
6. <https://www.appdirect.com/blog/what-does-the-growth-of-the-digital-economy-mean-for-your-business>
7. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonda-raqamli-iqtisodiyotni-rivojlantirish>